

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROVA SITORA MUXLISOVNA

**MUHAMMAD AVFIY BUXORIYNING «JAVOME' UL-HIKOYOT VA
LAVOME' UL-RIVOYOT» ASARIDAGI TA'LIMIY-AXLOQIY
G'OYALARNING PEDAGOGIK MOHIYATI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии по
педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Umarova Sitora Muxlisovna

Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot»
asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mohiyati..... 3

Умарова Ситора Мухлисовна

Педагогическая сущность образовательно-нравственных идей в
произведении Мухаммада Авфи Бухари «Джаваме ул-хикаят ва лаваме
ул-риваят» 23

Umarova Sitora Muxlisovna

The pedagogical essence of educational and moral ideas in the work of
Muhammad Avfi Bukhari «Javame ul-hikayat va lavame ul-rivayat»..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROVA SITORA MUXLISOVNA

**MUHAMMAD AVFIY BUXORIYNING «JAVOME' UL-HIKOYOT VA
LAVOME' UL-RIVOYOT» ASARIDAGI TA'LIMIY-AXLOQIY
G'OYALARNING PEDAGOGIK MOHIYATI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4036 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ma'murov Bahodir Baxshullayevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Maxmudov Mels Hasanovich pedagogika fanlari doktori, professor Ibraimov Xolboy Ibragimovich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «31» mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1359 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (65) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «16» mart kuni tarqatildi.

(2023 yil «16» mart dagi 3- raqamli reyestr bayonnomasi).



S. O. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

A. R. Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, p.f.d. (PhD), professor

H. O. Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan davlatlarida buyuk allomalar, mutafakkirlarimizning yuksak ma'naviy merosini o'rganish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish, ayniqsa, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ahamiyati nihoyatda yuqori bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti ta'lim sifati va samaradorligiga bog'liq ekanligi alohida e'tirof etilayotgan ayni zamonda, rivojlangan davlatlarda tarbiya masalasi ijtimoiy ehtiyojga aylanganligini sezish mumkin. Bu ehtiyojni to'ldirish esa ajdodlar merosiga qayta va qayta murojaat etish orqali amalga oshirishini tajribalar ko'rsatar ekan, Sharq mutafakkirlarining didaktik mazmundagi ilmiy-pedagogik asarlarini o'rganish barkamol avlod tarbiyasi uchun hayotiy zarurat hisoblanadi.

Dunyoning juda ko'p mamlakatlariga turli davr, sharoitlar sabab yurtimiz tarixi va madaniyatiga, dinimizga oid ko'plab asarlar, noyob qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari olib ketilganligi tarixdan ma'lum. Jahon ahamiyatiga molik yirik kolleksiyalar sifatida xorijiy davlatlarning qo'lyozmalar fondi, tarixiy muzeylari, virtual muzeylar, ilmiy-ma'rifiy muassasalarida saqlanayotgan tarixiy, etnografik milliy-madaniy meros namunalarni aniqlash, har tomonlama o'rganish hamda imkon qadar mamlakatimizga olib kelish maqsadida yurtimiz mustaqillikka erishgan yillardan bugungi kunga qadar salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning ko'pgina tarixiy shaharlarida, hududlarimiz hayoti bilan yaqindan tanishilganda, shunday bir fikrga ishonch hosil qilindiki, yurtimizning o'ziga xos tarixi, madaniyati, ulug' olimu ulamolarining bebaho ma'naviy merosi to'liq o'rganilmaganligi borasida Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks - sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan»¹, degan fikrlari O'zbekistonda yashayotgan ta'lim-tarbiya jarayonining har bir ishtirokchisini o'ylantirishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoniga asosan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi», 2022-yil 28-yanvar PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash to'g'risida», 2019-yil 3-may PQ-4307-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi

¹ Мирзиёев Ш.М. Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш-давр талаби//Видеоселектор йиғилишидаги нутқ.–15 июнь,2017 йил./<https://www.google.com>

qarorlari, 2019-yil 3-may PQ-4307-son qarorga binoan tasdiqlangan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» hamda Respublikamizda ta'lim tizimini isloh etishga qaratilgan boshqa me'yoriy qonun hujjatlarida ko'rsatilgan vazifa va talablarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Xorijiy mamlakatlarda Muhammad Avfiy Buxoriy ijodiga qiziqish ingliz sharqshunos olimlari N.Blend va E.Brounlar bilan boshlanib, Elliot, G.Mayers hamda J.Douson, N.Fray, J.R.Vergas va S.A.Haggar, M.Nozimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi respublikalari olimlaridan V.V.Bartold, V.A.Gordlevskiy, S.E.Bosvorz, S.G.Agajanov, Z.M.Buniyatov, N.N.Negmatov, B.D.Kochnev hamda tarjimonlik borasida Y.Borshevskiy, N.Osmanova, N.Tumanovich, S.Voxidov, A.K.Arends, tarix yo'nalishida M.Qazviniiy, M.Bahor, M.Ramazoniiy va B.Karimiiy, M.Nizomiddin, T.Beysembiyev, filologiya sohasida S.Vohidov, X.Sangova, I.Nizomiddinov, T.Fayziyev, M.Dilovarova, G.Sa'diyeva, M.Baqoyev, O'run Ko'hzod, X.Mirzozoda kabi olimlar tomonidan ilmiy-tarixiy manbalarning ijtimoiy, falsafiy ahamiyati va didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Respublikamizda Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi ilg'or pedagogik g'oyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanishga oid tadqiqotlar A.Zunnunov, S.Ochil, K.Hoshimov, O.Musurmonova, R.Mamatqulova, S.Nishonova, M.S.Salayeva, M.O.Inomova, B.X.Karayeva, A.M.Abdumannotov, N.Ortiqov, G.Q.Zaripova, N.M.Egamberdiyeva, Sh.Sh.Olimov, G.V.Izbullayeva, A.Nusratovlar tomonidan hamda Muhammad Avfiy Buxoriy ijodiga oid tadqiqotlar H.Mustavfiy, Xondamir, K.Qahhorova, Sh.Shomuhamedov tomonidan o'rganilgan.

Respublikamizda bajarilgan ilmiy tadqiqotlar asosan filologiya, tarix, adabiyot yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha, pedagogik fanlar doirasida Muhammad Avfiy Buxoriyning ma'naviy merosini o'rganish, «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi hikoyat va rivoyatlarning pedagogik mazmunini aniqlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanishga doir tadqiqotlar olib borilmagan. Joriy muammoning aniqlanishi, Muhammad Avfiy Buxoriyning ushbu asarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishini bajarish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq holda, «Barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari» (2017-2021 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mohiyatini o'rganish asosida ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asarining ta'lim-tarbiyaga oid jihatlarini pedagogika, falsafa, manbashunoslik, sharqshunoslik yo'nalishlari bo'yicha tahlil qilish;

Muhammad Avfiy Buxoriy ilmiy-pedagogik merosi mazmunidan bevosita tarbiya jarayonida qo'llash e'tibordan chetda qolganligini inobatga olib, asarning o'rganilish holatini takomillashtirish yo'llari, hikoyat va rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

hikoyat va rivoyatlar mazmunini didaktik tahlil qilish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tarbiyaviy sifatlarni tasniflash;

Muhammad Avfiy Buxoriyning ta'limiy-axloqiy g'oyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va olingan natijalar asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mazmunidan oliy o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlarida foydalanish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutining «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalar pedagogik mohiyatini o'rganishning shakl, uslub va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusiga oid pedagogik-psixologik va ilmiy manbalar, didaktik materiallar, o'quv-metodik adabiyotlarni tizimli o'rganish va tanqidiy tahlil qilish; suhbat, kuzatish, anketa, test, modellash, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asari mazmunida aks etgan ilg'or pedagogik fikr hamda g'oyalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini tarjimonlik, arabshunoslik, islomshunoslik, manbashunoslik, sharqshunoslik tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha tahlil qilish asosida Muhammad Avfiy Buxoriy ma'naviy merosini o'rganishning nazariy imkoniyatlarini pedagogik jihatdan rivojlantirish zarurati asoslangan;

mutafakkir ilmiy-pedagogik merosi mazmunidagi g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari «xulqu odob», «ilmi bo'lishning xosiyatlari», «rostlik», «nafs va uning oqibati», «odamiylik», «javonmardlik», «mo'minlik va musulmonlik», «farosat», «sahovat» kabi tushunchalarning mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilgan hikoya qilish, pand berish, nasihat qilish, bahs-munozara, tasniflash, bayon qilish, o'git aytish, namuna keltirish kabi o'qitish vositalari orqali aniqlangan;

hikoyat va rivoyatlar mazmunidagi tasniflangan tarbiyaviy sifatlar «aqlu donish», «ilmu hunar», «ayol tilsimot va axloq», «hukmdorlar ibrati» kabi ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalar asosida didaktik tahlil qilinib, tarbiyaning axloqiy, aqliy, nafosat, oila, fuqarolik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy, vatanparvarlik turlari tasnifi bo'yicha yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

Muhammad Avfiy Buxoriyning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni rivojlantiruvchi ta'limiy-axloqiy g'oyalaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ko'rsatishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Muhammad Avfiy Buxoriyning ta'limiy-axloqiy g'oyalari pedagogik mohiyatini o'rganish va tahlil qilish asosida «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot»dan «Javohir hikoyat va rivoyatlar» nomli hikoyat va rivoyatlardan iborat ilmiy risola ishlab chiqilgan;

«Muhammad Avfiy Buxoriy ta'limiy-axloqiy qarashlari» nomli monografiya chop etilgan hamda «Muhammad Avfiy Buxoriyning ma'naviy-axloqiy qarashlari» nomli tanlov fanining uslubiy ta'minoti asosida tavsiya etilgan;

«Pedagogik deontologiya va kompetensiya», «Umumiy pedagogika» nomli o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning mazmunidan pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida foydalanishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, takliflar ishlab chiqilganligi va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilayotgan Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrlar to'g'risidagi nazariy g'oyalar asosida tuzilgan model takomillashtirilganligi bilan izohlanadi;

dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mohiyatidan «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Pedagogik mahorat», «Oila pedagogikasi», «Ijtimoiy pedagogika», «Umumiy pedagogika», «Pedagogik konfliktologiya», «Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish texnologiyasi» singari fanlardan darslik, o'quv qo'llanma, majmualar tuzishda, pedagogika tarixi bo'yicha lug'atlar mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida pedagogik turkum fanlarni o'qitish jarayonida Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

«Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asari mazmunida aks etgan ilg'or pedagogik fikr hamda g'oyalardan yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan bo'lajak barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonida foydalanishga oid tavsiyalar «Pedagogik deontologiya va kompetensiya» nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17- martdagi 106-son buyrug'i, 106-203-raqamli guvohnoma). Natijada, oliy ta'lim muassasasi talabalari hamda pedagogika turkum fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan «Muhammad Avfiy Buxoriyning ma'naviy-axloqiy qarashlari» nomli maxsus kursining o'quv metodik ta'minoti hamda Muhammad Avfiy Buxoriyning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan barkamol shaxsni rivojlantiruvchi ta'limiy-axloqiy g'oyalardan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlarni ko'rsatishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar «Umumiy pedagogika» nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 2-avgustdagi 257-son buyrug'iga asosan 257-033-sonli guvohnomasi). Natijada, «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Xalq pedagogikasi», «Pedagogik mahorat», «Qiyosiy pedagogika», «Ijtimoiy pedagogika» kabi fanlarni o'qitishda, pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari hamda sohada faoliyat yurituvchi tadqiqotchilar kurs ishlari, ilmiy tadqiqotlarida, ilmiy maqolalar tayyorlashda «Umumiy pedagogika» nomli o'quv qo'llanma mazmunidan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

asardagi «xulqu odob», «ilimli bo'lishning xosiyatlari», «rostlik», «nafs va uning oqibati», «odamiylik», «javonmardlik», «mo'minlik va musulmonlik», «farosat», «sahovat» kabi tushunchalarning mohiyatini didaktik tahlil qilish asosida aniqlangan ilg'or pedagogik g'oyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi Buxoro viloyat bo'limi tomonidan amalga oshirilgan targ'ibot ishlarida keng foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi Buxoro viloyat bo'limining 2022-yil 15-iyundagi 01-194-son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy va umuminsoniy qadriyatlar (hikoyat, rivoyat, hikmatlar, masal) negizida viloyat miqyosida o'tkazilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, O'zbek xalqi madaniyatini asrash, milliy an'analar, urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, konferensiya va seminarlar mazmuni boyitilgan;

hikoyat va rivoyatlar mazmunida tasniflangan «aqlu donish», «ilmu hunar», «ayol tilsimot va axloq», «hukmdorlar ibрати» kabi ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalardan «Buxoro» telekanalining «Dolzarb mavzu», «Assalom, Buxoro», «Intervyu plyus» ko'rsatuvlari va radioeshittirishlarining mazmunini boyitish maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-iyundagi 1/141-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashga ustuvorlik berilib, yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasini rivojlantirishdagi ahamiyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga doir 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya hamda 1 ta ilmiy risola nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Muhammad Avfiy Buxoriy pedagogik merosini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Sharq va G'arb davlatlari olimlari tomonidan bajarilgan tadqiqotlarning tahlili Muhammad Avfiy Buxoriy ma'naviy merosining pedagogik muammo sifatida o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iboratligini ko'rsatadi:

1) Muhammad Avfiy Buxoriy ma'naviy merosidan pedagogika fanlarida foydalanish e'tibordan chetda qolganligi;

2) Muhammad Avfiy Buxoriyning inson ma'naviy-axloqiy kamoloti haqidagi qarashlarini to'laqonli aks ettiruvchi tadqiqot pedagogik fanlar tizimida o'rganilmaganligi;

3) Muhammad Avfiy Buxoriy ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarining o'rganilish holati va uning takomillashtirish yo'llarini aniqlash zarurligi.

Demak, Muhammad Avfiy Buxoriy pedagogik merosining asl mohiyatini anglashga qaratilgan tadqiqotlar va asarning turli tillardagi badiiy-irfoniy tarjimalari asosiy manba sifatida vosita hisoblanib, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Muhammad Avfiy Buxoriy shaxsi va uning ma'naviy (badiiy, pedagogik, tarixiy) merosi nafaqat chet elda, balki o'zimizning vatandoshlarimiz tomonidan ham o'rganilgan ekan, tadqiqotda Muhammad Avfiy Buxoriy ijodini o'zbek kitobxonlariga tanishtirgan manbalar havola etildi (1-jadvalga qarang).

Muhammad Avfiyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridan hikoyat va rivoyatlarni o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan manbalar

№	Muallif	Manba nomi	Mazmuni
1.	To'plam (tuzuvchi va to'plovchi muallif nomi ko'rsatilmagan)	Ajoyib hangomalar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974-yil	31 ta hikoyat taqdim etilgan
2.	I.Nizomiddinov, T.Fayziyev tarjimalari (fors tilidan)	Avfiy Muhammad. Nodir hikoyalar. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977-yil	4 ta bo'lim, 85 ta hikoyat va izohlar taqdim etilgan
3.	To'plovchi va tarjimon K.Qahhorova, dilkusho hikoyatlar so'zboshidagi fikr va mulohazalar Sh.Shomuhamedovdan	Ubayd Zokoni, Muhammad Avfiy, Ali Safiy, Abul Faroj. Hikoyat va rivoyatlar Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-yil	Muhammad Avfiy Buxoriydan 40 ta turli mavzuga oid hikoyatlar va rivoyatlar
4.	To'plovchi va tarjimon K.Qahhorova, dilkusho hikoyatlar so'zboshidagi fikr va mulohazalar Sh.Shomuhamedovdan	Ikkinchi nashr - Ubayd Zokoni, Muhammad Avfiy, Faxriddin Ali Safiy, Abul Faroj. Hikoyat va rivoyatlar. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-yil	Muhammad Avfiy Buxoriydan 35 ta rivoyat va hikoyat havola etilgan
5.	I.Nizomiddinov, T.Fayziyev tarjimalari (fors tilidan), L.Tangriyev nashrga tayyorlovchi	Avfiy Muhammad. Rashkchi erni jazolagan xotin. Sharq xalqlari rivoyatlari turkumi, 2012 y	Ikkita bo'limga oid 59 ta hikoyat va rivoyat mavjud

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning filologiya, tarjimonlik, tarix kabi tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha olib borgan izlanishlari natijasida bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari mutafakkirning ma'naviy merosi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga erishadilar.

Joriy tadqiqot natijasida, Muhammad Avfiy Buxoriyning ta'limiy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalari tarbiya turlari bo'yicha tahlil qilinib, ajdodlarimizning ilmiy pedagogik ta'limoti mazmunida aks etgan ilg'or fikr va pedagogik g'oyalari ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini o'rganishning nazariy imkoniyatlari aniqlangan. Asardagi ta'lim-tarbiyaga oid masalalar va pedagogik g'oyalar muayyan darajada hozirgi davr talablari bilan hamohangligiga urg'u berilib, mazkur merosdan foydalanish muhim ahamiyatli ekanligi bayon etilgan.

Sharq xalqlari o'zida insonparvarlik xususiyatlarini yuqori darajada namoyon etishi, ma'naviy-axloqiy tarbiyada, milliy va umuminsoniy qadriyatlar zahirida hikmatli so'zga boyligi, ta'lim-tarbiya jarayonida undan samarali foydalana olishi bilan ham necha asrlardan buyon dunyoda ta'lim-tarbiya jarayoni va ilm ahlinining hayratiga sabab bo'lib kelmoqda. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosini har

sohada chuqurroq o'rganish va tahlil qilish, ularning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari hamda shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi asarlaridan barkamol avlodni tarbiyalash jarayonidagi ahamiyatini aniqlash hayotiy zaruratga aylangan. Tarixdan ma'lumki, IX asrdan XIII asr boshlarigacha O'rta Osiyoda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlatlari hukmronlik qilgan. Bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'lib, ana shu davrda O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishilgan. Davlat hokimiyati mustahkamlanib, yurtda, ya'ni Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda siyosiy barqarorlikka erishilib, iqtisodiy rivojlanish jadallashgan, madaniy hayot ravnaq topgan.

Davlat arboblardan – Ahmad Nasr Somoniy, Ismoil Somoniy, Alptegin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Aloiddin Muhammad Otsiz, Takash kabi tadbirli va bunyodkor hukmdorlarning ma'rifatparvarlik sa'y-harakatlari bois Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib rivoj topgan. Aksariyat hukmdorlar mamlakatni boshqarishda ilm ahliga tayanishgan. Saroyda olim, san'atkor musiqachilar, shoirlar, turli sohalarning eng ilg'or vakillari harakatlari bilan nodir kutubxonalar yaratish va ularni boyitish bilan mashg'ul bo'lishgan. Ana shunday zaminda tuprog'i sug'orilgan zabardast ijodkorlardan biri Muhammad Avfiy Buxoriy Buxoroda taxminan 1172-1177 yillarda tug'ilgan. Uning oilasi ham ilm ahllaridan bo'lishgan. Manbalarga ko'ra, umrining oxirgi yillarini Hindiston (Dehli)da o'tkazgan. Muhammad Avfiy Buxoriyning hayot yo'lini tadqiqotchilar uch qismga bo'ladilar:

- birinchi davr (1172-1201 yy.) Avfiy hayotining bolalik va ilk tahsil yillari hisoblanadi;

- ikkinchi davr (1201-1220 yy.) uning Samarqandga safaridan boshlangan musofirlikdagi yillarini o'z ichiga oladi;

- uchinchi davr (1220-1233 yy.) Avfiy asarlari yaratilgan davr sanaladi.

Shuningdek, Muhammad Avfiy Buxoriy ta'limiy-axloqiy g'oyalarining shakllanishida tarixiy-ijtimoiy muhitning ta'siri o'rganilgan. Muhammad Avfiy Buxoriy shaxsi va uning ma'naviy (badiiy, pedagogik, tarixiy) merosi hisoblangan «Lubob ul-albob» hamda «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asarlari o'zbek, jahon mamlakatlari tarixchilari, sharqshunos olimlari, islomshunoslari, tilshunos va adabiyotshunoslari tomonidan tadqiqot obekti sifatida o'rganilgan va tadqiq etilgan. Mutafakkirning pedagogik merosi sanalgan «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asari bilan birga ko'pgina filolog olimlar e'tiborini tortgan hamda ularning tadqiqot ob'ektlariga aylangan «Lubob ul-albob» fors tilida ijod qilgan ijodkorlarga bag'ishlangan yagona tazkira ekanligi haqidagi ma'lumotlar havola etilgan. Shunga ko'ra, «Lubob ul-albob» tazkirasi zamonasining iste'dodlari haqida o'zida qimmatli ma'lumotlarni jamlagan noyob asar ekanligi bilan bugungi kunning sharq va g'arb olimlari uchun ham birdek ahamiyatli nodir asar ekanligi ayon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asari mazmunini o'rganish hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari**» deb nomlanib, ushbu bob «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi hikoyatlarning didaktik

tahliliga bag'ishlangan, hikoyat va rivoyatlar mazmunidagi tarbiyaviy sifatlar aniqlanib tarbiya turlariga ko'ra tasniflangan. Qolaversa, Muhammad Avfiy Buxoriyning ta'limiy-axloqiy g'oyalaridan ta'lim-tarbiyasi jarayonida foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Hikoyatlarni tasniflashda tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli, ommaviy shakllari, ya'ni pedagogik mazmunni tasniflashda individual yondashuvga tayaniladi. Bu o'quvchida o'qiyotgan har bir hikoyat va rivoyatda bayon etilgan pedagogik mazmunni anglay olishni, mustaqil xulosa qilib o'z munosabatini bildirishga o'rgatadigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish hamda tizim g'oyalariga amal qilishni talab etadi.

2 –jadval

Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyat va rivoyatlaridagi pedagogik g'oyalarning tasnifi hamda ularning tarbiya turlari mohiyati bilan uyg'unligi


№	Hikoyat va rivoyatlar mazmunida aks etgan g'oyalar, tarbiya turlari
1.	Axloqiy tarbiya: johil kishining maqtovidan ham qo'rqil, zero, bundaylarning maqtovi ham beg'araz bo'lmaydi; har kishi o'z tabiatiga mos gapni gapiradi; kishi o'g'rilikni orzu qilgan bo'lsa, avvalo, o'ng qo'lidan voz kechaversin - o'g'rilikning birinchi sharti bu; tuz haqiga rioya qilish mardlik va muruvvat mazhabida vojib; har kishida davlat bo'lsa, do'stlar ehtiyojidan ayamasin, toki o'g'il-qizlari yaxshi axloqqa ega bo'lsinlar; kishi omonatiga xiyonat qilmoqlik pastlikdir; kishi aybini qidirmaslik musulmonlikdir, yomon so'zlamaslik mo'minlik; barcha hayvonot nafs balosi tufayli ovchining tuzog'iga tushadi, har kishi o'zida nafs o'tini qanoat suvi bilan o'chirsin, toki omonlik topgay; toj havasiga tushgan kimsa boshning bahridan o'tmog'i lozim; yovuzlik ko'rmayin desang, yovuzlik qilma, yaxshilik qilgan yaxshilik ko'rgay.
2.	Aqliy tarbiya: ikki dunyoda tinchlikni va g'am-anduhdan yiroq bo'lishni istasang, hargiz so'zlama; aql ila o'rnida so'zlangan yolg'on kishini balolardan qutqarsa, rost so'z mushkulotlarga najot bo'lgay; izzat-ehtiromga loyiq bo'lish va noming tarixda muhrlanishini istasang, ilm orttir; zehn, odob, ilm, tavoze'ning birortasiga ega bo'lmagan kishining tirikligi o'lgan bilan barobar.
3.	Iqtisodiy tarbiya: podshoh yurtiga baraka yog'ilsin desa, xalqiga zulm qilmay, niyatini poklasin.
4.	Nafosat tarbiyasi: oqila xotinning fikridan ezguliyoq iste'dod yo'q; kishi uy-joyini go'zallashtirib boyliklar bilan to'ldirish barobarida qalbini ham xayr va muruvvatga to'ldirsin; odamlarga nisbatan muhabbat yoki nafratning paydo bo'lishi ulardan voz kechishga sabab bo'lolmaydi.
5.	Oila tarbiyasi: har bir ota o'z o'g'lini xato qilishdan albatta qaytarmog'i lozim; mehmonga ipak to'shakdan joy qilib berishdan avval, uning qornini to'yg'azmoq afzal; shoshqaloqlik – ranj va beqarorlikni keltirur, sabr va matonat murodga yetkazur; yaxshi insonlar bilan do'stu hamsuhbat bo'lishdan yaxshi va yomonlar bilan hamnishinu hamtovoq bo'lishdan yomon ish yo'q dunyoda.
6.	Fuqarolik tarbiyasi: agarki qo'shnilaridan biri xusumatda bo'lsa, boshqasining hiyonat qilmog'i muqarrardir.
7.	Ekologik tarbiya: birovlar ekkan ko'chatning hosilini biz yedik, endi biz ekamiz, kelgusida avlodlar yesinlar.

Hikoyat va rivoyatlar mazmunida ifodalangan bosh g'oyalar undagi qahramonlar bilan bog'liq voqealar vositasida bayon etilgan. Qahramonlarning tarbiyaviy sifatlari esa turli-tuman sarguzasht va pand, nasihat, mot qilish, so'zamollik kabi shakllarda fazilat yoki illat ko'rinishida namoyon bo'lgan. Hikoyat va rivoyatlarning bosh qahramonlari asosan, saroy a'yonu akobirlari, shohlaru vazirlar hayoti, zulmkor yer egalari, sudxo'rlar, boylar, mulla va eshonlar, qozi va amaldorlar, xonlar, mazlum xalq vakillaridir. Voqeliklarda aks etgan davrlar turli zamonlarda kechgan. Bunda xalq har qanday tarixiy o'zgarishlar ichida ham o'zining donishmandligi, o'tkirligini namoyon eta olganligini hikoyatlarni o'rganish davomida inson ruhida bo'ladigan tetiklik, ko'tarinkilik, chiroyli yashashga nisbatan ishtiyoqning paydo bo'lishi, poklikni qadrlash va intilish, o'z tarixini chuqurroq o'qib anglashga nisbatan qiziqishning ortishi jarayonida namoyon bo'ladi. Quyidagi jadval asosida hikoyat va rivoyatlar mazmunida aks etgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarning pedagogik mohiyati tarbiya turlari asosida tasniflanib tahlil qilingan (2-jadvalga qarang).

Yuqorida ifodalangan tarbiya turlariga oid g'oyaviy tasniflar jumlasiga, tarbiyaning mehnat tarbiyasi, vatanparvarlik tarbiyasi, huquqiy tarbiya kabi turlariga oid ko'plab mulohazalarni har bir hikoyat va rivoyat negizidan anglash mumkinki, ularni qanchalik darajada aniqlash har bir o'quvchining aqliga va zakosiga havola. Jumladan, oila va jamiyatda kasb-hunardan keladigan daromadga ehtiyoj bo'lmasada, hatto zodagonlar ham kibrlanmay kasbu hunar o'rgansinlar; davlat boshqaruv ishlarida sabr va matonat bilan ish tutmoqlik, shitobkorlikdan yiroq bo'lmoqlik muvofiq; ikki qilich bir qinga sig'maganidek, ikki hukmdor bir mamlakatga sig'maydi; xizmat vazifasini bajarayotganda uzoq tush ko'rib uxlayotgan mulozimlarga vazifa ham, ehtiyoj ham yo'q kabi xulosalarni shular jumlasidan deyish o'rinli. Demak, quyidagicha mushohada qilish o'rinli, kishining tabiati va axloqi uning bilan birga tug'ilib voyaga yetadi. Ammo yaxshi axloqni ham, yomon axloqni ham voyaga yetkazuvchi va takomillashtiruvchi tarbiyadir. Axloq – ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishi deb tushunilsa, ma'naviyat – qalb sofligida aks etadi. Ya'ni, birinchisi botin bo'lsa, ikkinchisi uning vosita (ko'z, til, quloq, qo'l, oyoq pokligi va h.k)lar orqali zohirda aks etishidir. Agar biri adashsa, ikkinchisi ayniydi – vositaning biror chegarasi buzilsa, or-nomus masalasiga dahl qilinadi. Bu Ma'naviyat - axloq - ma'naviyat kabi bir tizimda namoyon bo'ladi, biri ikkinchisini taqozo etaveradi. Axloqiy mukammallikka erishuv esa tarbiya yo'li orqali amalga oshiriladi.

Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyat va rivoyatlarida har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, jinsiy, hamda huquqiy, vatanparvarlik tarbiyasini berishga urg'u beriladi. Ob'yekt sifatida tarbiyalanuvchining ongi, xulq-atvori va faoliyatining integratsiyasi tushuniladi. Unga ko'ra, Mammad Avfiy Buxoriyning axloqga oid hikoyat va rivoyatlarini quyidagicha tasniflash o'rinli.

1. Xulq, odob ilm va hunarga doir hikoyatlar.
2. Aqlu donish, hozirjavoblik zikrida.
3. To'g'rilik, diyonat, nafs bobida.
4. Tarixiy ibratli hikoyat va rivoyatlar.
5. Sarguzasht hikoyatlar.



1-rasm. «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalardan pedagogik jarayonda foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi takomillashtirilgan model mazmuni

«Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot»da shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida – (biologik) nasl omili, (ijtimoiy) muhit omili hamda ta'lim-tarbiya omili hikoyot va rivoyatlarining aksariyatida ibrat, o'zi yashagan davr va jamiyatidagi achchiq haqiqatlarni tanqid ostiga olish orqali, ba'zi o'rinlarda esa yengilgina kulgu, kosa tagida nimkosa kabi tarzda izohlangan. Bunda axloqiy tubanlik va nafs; tekinxo'rlik, munofiqlik va takabburlik; ziqnalik va ochko'zlik; yuzsizlik kabi illatlar ob'ekt sifatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning mezonlari sifatida – insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, haqsevarlik, ilmlilik; komponentlardan esa, tan, aql, ruh, muloqotning o'rni va ahamiyati yetarlicha ilmiy asoslangan. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi. Bu mexanizm quyidagi modelda ifodalangan (1-rasmga qarang).

1-rasmda ifodalangan modelning mazmunidan shuni anglash mumkinki, turli zamonlar va turli makonlarda ijtimoiy tarbiyaning mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Demak, Muhammad Avfiy Buxoriyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari mazmunida - shaxsning shakllanishi va tuzilishi, sifat jihatidan o'zgarishi, shaxsning ma'naviy-axloqiy ko'rinishi, ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuksaltiruvchi omillar, oila munosabatlari, ta'lim va tarbiya metodlari tasnifi, axloqiy tarbiya mezonlari, axloqiy tarbiyani shakllantiruvchi omillar tasnifi, ma'naviy tarbiya mezonlari, ma'naviy tarbiyani shakllantiruvchi omillar tasnifi, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanganlik darajasi, o'zligini anglash kabi oliy ta'lim muassasasi talabalarida sifat o'zgarishiga erishish vazifalari har tomonlama yoritib berilganki, ular bugungi kunda tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning «**Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi**» nomli uchinchi bobida Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asarida keltirilgan hikoyot va rivoyatlarda aks etgan ta'limiy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mohiyatiga doir olib borilgan tadqiqot ishlarining samaradorlik darajasi aniqlanib, mavzu yuzasidan tajriba-sinov ishlarining tahlili hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarida Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyot va rivoyatlaridagi ta'limiy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mohiyatiga xos bo'lgan tarixiy tafakkur va fikrlar sohasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili natijalari keltirilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda taklif etilayotgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari yakunida qayd etilgan ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash orqali ko'rsatildi. Natijalarni qayta tahlil etishga oid matematik-statistik metodlarda ilgari surilayotgan g'oyaga ko'ra, qayta tahlil aynan tajriba va nazorat guruhlari tajriba-sinovida qatnashayotgan talabalarining tajriba yakunidagi ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni belgilash orqali tadqiqot samaradorligiga baho berildi. Ana shu maqsadda K.Pirsonning χ^2 mezoniga muvofiq tajriba va nazorat guruhlari talabalarining birinchi bosqich yakuniy ko'rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich ko'rsatkichlari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Bunda H_0 gipoteza sifatida tajriba va nazorat guruhlaridagi kuzatuv davrida baholash turlari bo'yicha kutilayotgan ehtimollik teng deb, muqobil H_1 gipotezada teng emas deb olinadi. Ya'ni, H_0 - tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov ishlari o'tkazilgandan so'ng, talabalarning bilim darajalarida katta o'zgarish sezilmaydi.

H_1 - tajriba va nazorat guruhlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi.

